


O'zbekiston Respublikasi yalpi ichki mahsuloti¹ 2026- yil yanvar-mart oylari uchun²

- I. Yalpi ichki mahsulot dinamikasi
- II. Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha yalpi ichki mahsulot
- III. Aholi jon boshiga yalpi ichki mahsulot dinamikasi
- IV. Axborot-kommunikatsiya texnologiyalari xizmatlarining yalpi ichki mahsulotdagi ulushi
- V. Kichik tadbirkorlik (biznes)da yaratilgan yalpi qo'shilgan qiymat
- VI. O'zbekiston Respublikasi bo'yicha kuzatilmaydigan iqtisodiyot
- VII. Izohlar
- VIII. Havolalar

I. Yalpi ichki mahsulot dinamikasi

Dastlabki ma'lumotlarga ko'ra, 2026- yilning yanvar-mart oylarida O'zbekiston Respublikasining yalpi ichki mahsuloti (YAIM) hajmi joriy narxlarda **447,9** trln so'mni hamda 2025- yilning mos davri bilan taqqoslaganda real o'sish sur'ati **8,7 %** ni tashkil etdi.

YAIM hajmi va o'sish sur'atlari³, yanvar-mart



Mavzuga doir havola:

[YAIM \(YAHM\) hajmi \(choraklik\)](#)

[YAIM \(YAHM\) o'sish sur'atlari \(choraklik\)](#)

¹ Ma'lumotlar kuzatilmaydigan iqtisodiyotni baholash bo'yicha o'tkazilgan statistik kuzatuvlar natijalarini hisobga olgan holda shakllantirilgan.


² Dastlabki ma'lumotlar

³ 2025- yilning yanvar-mart oylari ma'lumotlari qayta baholangan.

YAIM deflyator indeksi 2025- yilning yanvar-mart oylaridagi narxlarga nisbatan **110,6 %** ni tashkil etdi. YAIM deflyator indeksining eng yuqori ko'rsatkichlari sanoat tarmog'ida – **115,8 %** va qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligida – **113,2 %** ni tashkil etdi.

Respublikaning o'rtacha darajasidan past bo'lgan deflyator indeksleri qurilishda – **104,7 %**, tashish va saqlash, axborot va aloqada – **104,8 %**, savdo, yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlarda – **106,0 %** hamda boshqa xizmat tarmoqlarida – **107,4 %** ni tashkil etdi.

2026- yilning yanvar-mart oylarida YAIMning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha deflyator indeksleri



Mavzuga doir havola:

[YAIM deflyator indeksi \(choraklik\)](#)


II. Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha yalpi ichki mahsulot

Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha YAIMni ishlab chiqarish quyidagi jadvalda keltirilgan ma'lumotlar bilan ifodalanadi:

	Hajmi, mlrd so'm		O'sish sur'atlari, % da	YAIM o'sishidagi hissasi, f.p. da
	2025- yil yanvar-mart	2026- yil yanvar-mart		
YAIM – jami	372 829,9	447 935,3	108,7	x
<i>shu jumladan:</i>				
Tarmoqlarning yalpi qo'shilgan qiymati	359 054,2	427 506,8	108,7	8,4
qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi	30 398,1	36 182,4	105,1	0,4
sanoat	99 801,4	124 852,4	108,0	2,2
qurilish	21 919,4	26 393,0	115,0	0,9
savdo, yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar	52 456,4	64 229,7	115,5	2,2
tashish va saqlash, axborot va aloqa	33 715,7	40 447,7	114,4	1,3
boshqa xizmat tarmoqlari	120 763,2	135 401,6	104,4	1,4
Mahsulotlarga sof soliqlar	13 775,7	20 428,5	108,2	0,3

Iqtisodiy o'sish sur'ati iqtisodiyotning asosiy tarmoqlarida kuzatilgan ijobiy dinamika bilan bog'liqdir. Iqtisodiyotning barcha tarmoqlarida yaratilgan yalpi qo'shilgan qiymat hajmi YAIM umumiy hajmining **95,4 %** ini tashkil etdi va **8,7 %** ga o'sdi (YAIM mutlaq o'sishidagi hissassi **8,4** foiz punktni tashkil etdi). Mahsulotlarga sof soliqlarning YAIM tarkibidagi ulushi **4,6 %** ni tashkil etdi va **8,2 %** darajasida o'sish qayd etildi (YAIM mutlaq o'sishidagi hissassi **0,3** f.p.).

YAIMning tarmoqlar bo'yicha tarkibi, yanvar-mart



2026- yilning yanvar-mart oylari yakunlariga ko'ra, YAIM tarkibida katta bo'lmagan o'zgarishlar kuzatildi. 2025- yilning mos davriga nisbatan YAIM (YAQQ) tarkibida sanoatning ulushi **27,8 %** dan **29,2 %** ga va qurilishning ulushi **6,1 %** dan **6,2 %** ga oshdi. Shu bilan birga, xizmatlar sohasining ulushi **57,6 %** dan **56,2 %** ga, qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligining ulushi **8,5 %** dan **8,4 %** ga kamaydi.

2026- yilning yanvar-mart oylarida qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligida **5,1 %** darajasida ijobiy o'sish qayd etildi.

Ushbu tarmoqdagi ijobiy o'sish sur'atlari dehqonchilik va chorvachilik, ovchilik va ushbu sohalarda ko'rsatilgan xizmatlarning **5,1 %** ga va baliqchilik xo'jaligi – **6,8 %** ga o'sishi bilan bog'liq.

2026- yilning yanvar-mart oylari yakunlariga ko'ra, sanoat tarmog'ida yaratilgan yalpi qo'shilgan qiymat hajmi **124 852,4** mlrd so'mni tashkil etdi va 2025- yilning mos davri bilan taqqoslaganda **8,0** % ga o'sish kuzatildi.


Ushbu tarmoqdagi ijobiy dinamika, asosan ishlab chiqaradigan (qayta ishlash) sanoatning **9,1** % ga o'sishi hisobiga ta'minlandi.

	Hajmi, mlrd so'm		O'sish sur'atlari, % da
	2025- yil yanvar-mart	2026- yil yanvar-mart	
Sanoat – jami	99 801,4	124 852,4	108,0
<i>shu jumladan:</i>			
tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash tarmog'i	11 911,6	13 015,7	104,1
ishlab chiqaradigan (qayta ishlash) sanoat	80 839,2	102 584,2	109,1
elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash tarmog'i	6 439,6	8 433,7	103,1
suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilitatsiya qilish tarmog'i	611,0	818,8	108,5

2026- yilning yanvar-mart oylari yakunlariga ko'ra, qurilish tarmog'ida yaratilgan yalpi qo'shilgan qiymat hajmi **26 393,0** mlrd so'mni tashkil etdi va 2025- yilning mos davri bilan taqqoslaganda qurilish ishlari hajmi **15,0** % ga o'sdi.

Jumladan, bino va inshootlar qurilishi **16,3** % ga, fuqarolik obyektlari qurilishi **10,1** % ga va ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari **14,0** % ga o'sgan.

Qurilish tarmog'ining yalpi qo'shilgan qiymati tarkibi, yanvar-mart




2026- yilning yanvar-mart oylari yakunlariga ko'ra, xizmatlar sohasining yalpi qo'shilgan qiymati hajmi **240 079,0** mlrd so'mni tashkil etdi va 2025- yilning mos davriga nisbatan **8,8 %** ga o'sdi. Shu jumladan, savdo xizmatlari **19,4 %** ga, yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar **8,4 %** ga, tashish va saqlash xizmatlari **12,3 %** ga, axborot va aloqa xizmatlari **18,3 %** ga, boshqa xizmatlar **4,4 %** ga o'sdi.

	Hajmi, mlrd so'm		O'sish sur'atlari, % da
	2025- yil yanvar-mart	2026- yil yanvar-mart	
Xizmatlar sohasi – jami	206 935,3	240 079,0	108,8
<i>shu jumladan:</i>			
savdo xizmatlari	33 959,9	42 521,5	119,4
yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar	18 496,5	21 708,2	108,4
tashish va saqlash	21 931,6	25 470,8	112,3
axborot va aloqa	11 784,1	14 976,9	118,3
boshqa xizmatlar	120 763,2	135 401,6	104,4

2026- yilning yanvar-mart oylarida savdo tarmog'ining yalpi qo'shilgan qiymati tarkibida eng katta ulushi chakana savdo (avtotransport vositalari savdosidan tashqari)ga to'g'ri keldi va **45,6 %** ni tashkil etdi. Ulgurji savdo (avtotransport vositalari savdosidan tashqari)ning ulushi **33,8 %** ni, avtotransport vositalarining ulgurji va chakana savdosi hamda ularni ta'mirlashning ulushi **20,6 %** ni tashkil qildi.


Savdo tarmog'ining yalpi qo'shilgan qiymati tarkibi, yanvar-mart



2026- yilning yanvar-mart oylari yakunlariga ko'ra, tashish va saqlash tarmog'ining O'zbekiston Respublikasi YAIMidagi ulushi **6,0 %** ni tashkil etdi.

Tashish va saqlash tarmog'ining qo'shilgan qiymati tarkibida eng ko'p ulushi avtomobil transportiga to'g'ri keldi va **57,5 %** ni tashkil etdi. Mazkur tarmoq umumiy qo'shilgan qiymatida quvur transportining ulushi **9,7 %**, temir yo'l transportining ulushi **8,6 %**, yordamchi transport faoliyatining ulushi **16,2 %**, havo transportining ulushi **8,0 %** ni tashkil etdi.


Tashish va saqlash tarmog'ining yalpi qo'shilgan qiymati tarkibi, yanvar-mart



III. Aholi jon boshiga yalpi ichki mahsulot dinamikasi

2026- yilning yanvar-mart oylari yakunlariga ko'ra, aholi jon boshiga YAIM hajmi **11 692,5** ming so'mni hamda 2025- yilning mos davriga nisbatan real o'sish sur'ati **6,7 %** ni tashkil etdi.


Aholi jon boshiga YAIM hajmi va o'sish sur'atlari, yanvar-mart




IV. Axborot-kommunikatsiya texnologiyalari xizmatlarining yalpi ichki mahsulotdagi ulushi

2026- yilning yanvar-mart oylarida axborot-kommunikatsiya texnologiyalari (AKT) xizmatlarining mamlakat iqtisodiyotidagi ulushi **3,2 %** ni tashkil etdi.

AKT xizmatlarida yaratilgan yalpi qo'shilgan qiymat hajmining **31,3** foizi aloqa xizmatlari, **50,1** foizi kompyuter dasturlashtirish, maslahat berish va boshqa yordamchi xizmatlar, **10,9** foizi ma'lumotlarni joylashtirish va ishlov berish bo'yicha xizmatlar, veb-portallar, **4,8** foizi dasturiy ta'minotni chiqarish, qolgan **2,9** foizi kompyuterlar va aloqa uskunalarini ta'mirlash xizmatlari hissasiga to'g'ri kelgan.



V. Kichik tadbirkorlik (biznes)da yaratilgan yalpi qo'shilgan qiymat




2026- yilning yanvar-mart oylari yakunlari bo'yicha kichik tadbirkorlik (biznes) subyektlari tomonidan **194 762,0** mlrd so'm miqdorida qo'shilgan qiymat yoki iqtisodiyotdagi yalpi qo'shilgan qiymatning **45,6 %** i yaratilgan. Shundan **17,6 %** i qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi, **14,0 %** i sanoat, **10,4 %** i qurilish tarmoqlari va **58,0 %** i xizmatlar sohasiga to'g'ri keldi.

Kichik tadbirkorlik (biznes) subyektlari ulushi iqtisodiyotning asosiy tarmoqlari bo'yicha qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligida **94,6 %**, qurilishda **77,0 %**, xizmatlar sohasida **47,1 %** va sanoatda **21,8 %** ni tashkil etdi.

VI. O'zbekiston Respublikasi bo'yicha kuzatilmaydigan iqtisodiyot

2026- yilning yanvar-mart oylari yakunlariga ko'ra, O'zbekiston Respublikasida kuzatilmaydigan (uy xo'jaliklari va jismoniy shaxslar faoliyati hamda yashirin) iqtisodiyotning yalpi qo'shilgan qiymati hajmi **102 682,9** mlrd so'mni va uning yalpi ichki mahsulotdagi ulushi **22,9 %** ni tashkil etdi (2025- yilning yanvar-martida – **24,8 %**).

Shundan uy xo'jaliklari va jismoniy shaxslar faoliyatining yalpi qo'shilgan qiymati hajmi **69 128,6** mlrd so'mni va uning yalpi ichki mahsulotdagi ulushi **15,4 %** ni tashkil etdi. Yashirin iqtisodiyotning yalpi qo'shilgan qiymati hajmi esa **33 554,3** mlrd so'mni va uning yalpi ichki mahsulotdagi ulushi **7,5 %** ni tashkil etdi.



Mavzuga doir havola:
[Kuzatilmaydigan iqtisodiyot](#)

2026- yilning yanvar-mart oylarida uy xo'jaliklari va jismoniy shaxslar faoliyati hamda yashirin iqtisodiyot hajmining tarmoqlar bo'yicha tarkibida qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi **81,1 %** ni, xizmatlar sohasi **24,5 %** ni, qurilish **23,9 %** ni va sanoat **6,7 %** ni tashkil etgan.

VII. Izohlar

Yalpi ichki mahsulot (YAIM) Milliy hisoblar tizimining asosiy ko'rsatkichlaridan biri hisoblanib, iqtisodiy rezident-birliklar ishlab chiqarish faoliyatining yakuniy natijasini hamda ushbu birliklar tomonidan yakuniy foydalanish uchun ishlab chiqarilgan tovarlar va xizmatlar qiymatini o'zida aks ettiradi.

Ishlab chiqarish usulida hisoblangan YAIM O'zbekiston Respublikasi iqtisodiy hududining barcha rezident birliklarini iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha qamrab oladi.

YAIMni ishlab chiqarish usulida tarmoqlar kesimida baholash uchun iqtisodiy faoliyat turlari umumdavlat tasniflagichi (IFUT-2)dan foydalaniladi.

Aholi jon boshiga YAIM muayyan davrda joriy narxlardagi YAIM hajmini mamlakatning o'rtacha aholisi soniga bo'lish orqali aniqlanadi.

Yalpi qo'shilgan qiymat (YAQQ) ishlab chiqarilgan tovarlar va xizmatlar qiymati (ishlab chiqarish) va ishlab chiqarish jarayonida to'laligicha iste'mol qilingan tovarlar va xizmatlar qiymati (oraliq iste'mol) o'rtasidagi farq orqali aniqlanadi.

YAIM fizik hajm indeksi (o'sish sur'ati) doimiy narxlarda, ya'ni o'tgan yilning mos davri narxlarida hisoblangan hisobot davri YAIM (real YAIM)ni joriy narxlardagi o'tgan yilning mos davri YAIMga nisbati orqali hisoblanadi.

YAIM deflyator indeksi iqtisodiyotda narxlarning o'rtacha o'zgarishini ifodalaydi va nominal YAIM (joriy narxlardagi hisobot davri YAIM)ning real YAIMga nisbati orqali hisoblanadi.

Kuzatilmaydigan iqtisodiyot – doimiy statistika kuzatuvlarida to'liq yoki qisman qamrab olinmagan, shuningdek, statistika ko'rsatkichlarida aks ettirishda bilvosita usullar orqali baholanadigan iqtisodiy faoliyat turlari.

Uy xo'jaliklari va jismoniy shaxslar faoliyati – uy xo'jaliklari yoki jismoniy shaxslar tomonidan belgilangan tartibda ro'yxatdan o'tmagan holda amalga oshiriladigan ishlab chiqarish (xizmat ko'rsatish) bilan bog'liq iqtisodiy faoliyat.

Yashirin iqtisodiyot – qonun bilan man etilmagan, ammo soliqqa tortilmaslik va qonun hujjatlari talablariga rioya qilmaslik maqsadida davlat organlaridan ataylab berkitilgan iqtisodiy faoliyat.

VIII. Havolalar

[Yalpi ichki mahsulotni ishlab chiqarish usulida hisoblash bo'yicha uslubiy nizom](#)

[Kuzatilmaydigan iqtisodiyotni statistik baholash bo'yicha uslubiy nizom](#)

[Ishlab chiqarish usuli bo'yicha yalpi ichki mahsulot](#)

Chop etishga mas'ul:
Makroiqtisodiy indikatorlar va milliy
hisoblar boshqarmasi

Manzil: 100170, Toshkent,
Mustaqillik shoh ko'chasi, 63
Aloqalar: info@stat.uz
Tel.: 71-203-80-00 (1060)

